

Islom sivilizatsiyasi markazi: din, ilm va zamonaviylik uyg'unligi



O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi – ham mahobati, ham mohiyati jihatidan ulkan loyiha.

Prezident Shavkat Mirziyoyev 29-yanvar, juma kuni ushbu markazga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari o'tgan yillarda bu yerga bir necha bor kelib, uni chiroqli va sifatli qilib qurish, dunyo olimlari fikrini o'rganib, mazmunini boyitish bo'yicha ko'rsatmalar bergen edi. Bu galgi tashrif chog'ida shu boroda amalga oshirilayotgan ishlar haqida ma'lumot berildi.

Markaz binosi loyihasi, ichki va tashqi dizayni, muzey ekspozitsiyalari mazmuni bo'yicha dunyoning yetuk olimlari, islomshunos va san'atshunoslari bilan fikrashilgan. Shu asosida ilmiy-tarixiy konsepsiya ishlab chiqilgan.

Tashrif chog'ida ushbu konsepsiyaning taqdimoti o'tkazildi.

- Bugun bu yerga kelishimdan maqsad - muqaddas dinimizning ezgulik, insonparvarlik dini ekanini, ma'naviyatga, ilmga undashini, ota-bobolarimiz bunga beqiyos hissa qo'shganini tasdiqlovchi ilmiy natijalarni ko'rish va yangi tadqiqotlarga zamin yaratish. Hozir mahobatli bino qurish oson bo'lib qoldi. Mana, bobolarimizga munosib bino qurdik. Endi bobolarimizga munosib ilmiy muhit yaratishimiz kerak, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Bu yosh avlodda g'urur, g'ayrat uyg'otib, yangi taraqqiyot davriga undashi qayd etildi.

- Ko'pchilik o'ylaydi: nima uchun Prezident ikkita Renessansni esladi, deb. Bu - g'oya, kelajakdagi maqsadimiz. Mamlakatimiz intilayotgan marralar uchun tariximizdan ruhiy kuch olishimiz kerak-ku! Bu markaz Uchinchi Renessans poydevoridan biri bo'lishiga umid qilamiz. Chunki u ilmiy, dunyoviy, zamonaviy markaz bo'ladi, - dedi davlatimiz rahbari.

Markaz ekspozitsiyalari bo'yicha xalqimiz fikrini ham o'rganish, shu maqsadda tanlov e'lon qilib, eng yaxshi g'oya va takliflarni aks ettirish zarurligi ta'kidlandi.

- Yurtimiz zaminidan juda ko'p olimlar, muhaddislar, avliyolar yetishib chiqqan, ularning merosi undan ham ko'p. Lekin tan olish kerak, bu katta manbani chuqur o'rganmadik. Shuning uchun bu markaz qanday buyuk elligimizni yana bir bor ilmiy asoslab, xalqchil tushuntirib beradigan bo'lishi kerak. Bu yerda milliy g'oya jo'sh urib turishi zarur. Markazga kelgan odamlarda, yoshlarimizda ruhiy kuch, ruhiy ishonch paydo bo'lishi kerak, - deya ta'kidladi Prezident.

UNESCO, ISESCO kabi xalqaro tashkilotlar, ilmiy markazlar bilan hamkorlikni rivojlantirish muhimligi qayd etildi.

- O'zi bugun dunyoda matematika, fizika, geometriya, astronomiya, tibbiyot kabi fundamental sohalarda qo'llanilayotgan qoidalar, formulalar alloma bobolarimiz kashfiyotlariga asoslangan. O'rta asrlardagi birinchi manbalarda bobolarimizning nomiga havolalar berilgan. Lekin keyingilarida yo'qolib ketgan, - dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois birinchi manbalarni o'rganish maqsadida O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix institutiga qo'shimcha mablag', tadqiqotchilarga grantlar ajratish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Markaz uchun malakali gid-tarjimonlar tayyorlash, ularning mamlakatimizda islom dini yoyilishi va ilm-fan rivoji bo'yicha ixtisoslashtirish vazifasi qo'yildi.

Bu yerdagi ilmiy merosni yoshlarga zamonaviy tarzda yetkazish uchun markaz qoshida multimedia bo'limi, qadimiy xattotlik an'analarini ko'rsatish uchun ustaxona-laboratoriya tashkil etish bo'yicha ko'rsatma berildi.





Manba